

16. Sonlarni qo'shish (21 + 39)

Yondosh mavzu:
Foydali qazilmalar

O'nliklar va birliklar,
xona birliklari.



$$\blacktriangle = 16$$

$$\bigcirc = 24$$

$$\blacktriangle \bigcirc = ?$$

$$\blacktriangle \blacktriangle = ?$$

1. Misollarni namunaga qarab yeching.

Namuna:


$$21 + 39 = (20 + 30) + (1 + 9) = 50 + 10 = 60$$

$$\begin{array}{|c|c|} \hline 20 & 1 \\ \hline \end{array} \begin{array}{|c|c|} \hline 30 & 9 \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{l} 49 + 11 \\ 36 + 44 \\ 32 + 28 \\ 72 + 18 \end{array}$$

2. O'quvchilar xaritadan foydali qazilmalarni izlashdi. Birinchi jamoa 32 ta, ikkinchi jamoa 18 ta qazilma konini topdi, uchinchi jamoa esa birinchi va ikkinchi jamoa birgalikda qancha topgan bo'lsa, shuncha topdi. Uchala jamoa jami qancha qazilma konini topgan?

3. Ko'rgazma uchun foydali qazilmalar namunalari tayyorlab qo'yildi.



■ Temir rudalari
■ Neft
■ Kvars
■ Ko'mir
■ Granit
■ Ohaktosh
■ Marmar

Bu ifodalar nimani bildiradi?

$$90 - 50$$

$$40 + 10$$

$$80 - (50 + 20)$$

$$(40 + 10) - 20$$


16. Sonlarni qo'shish (21 + 39)

■ Toshko'mir
▲ Neft

● Oltin
△ Tabiiy gaz



4. Chizma yordamida masala o'ylab toping va yeching.



? xil namuna



5. AB va CD kesmalarni shunday chizingki, kesmalar kesishganda o'tmas va o'tkir burchaklar hosil bo'lsin.



6. To'g'ri to'rtburchakda chiziqni shunday o'tkazingki, ular to'g'ri to'rtburchakni 2 ta teng qismga bo'lsin. Yechimning nechta variantini topish mumkin?



7. Tenglamalarni yeching.

$$t + 8 = 58$$

$$60 - p = 6$$

$$b - 54 = 16$$



8. Komila va Saida grafik ko'rinishdagi nazorat ishiga tayyorlanishdi. Saida 12 ta, Komila 8 ta foydali qazilma belgisini esladi. Kim ko'p belgi esladi va qancha ko'p esladi? Jami nechta foydali qazilma belgisi eslangan?